


Septorioz. Ushbu kasallik Eronda birinchi marta 2008 yilda aniqlangan. U pista barglarining jiddiy shikastlanishiga olib kelgan. Septoriozning asosiy belgilari sifatida barg ustida jigarrang dog'lar va juda ko'p miqdorda pikpidiyalarning paydo bo'lishi keltirilgan [4]. Barg yuzasidagi belgilar va zamburug'ning morfologik xususiyatlariga ko'ra uning qo'zg'atuvchisi *Septoria pistacina* ekanligi aniqlangan (5-rasm).



5-rasm. Septorioz kasalligi

a) kasallikning bargdagi dastlabki belgilari;
b) mavsum so'ngida kasallikning og'ir belgilari.

Alternarioz-fitoftoroz. Bunda barglarda uncha katta bo'lmagan zararlanish hosil bo'ladi. Hali yetilmagan, yashil bo'lib turgan pista mevasida 1 mm gacha bo'lgan dog'lar paydo bo'ladi [1; 2]. Yetilgan mevalarda bu dog'lar turli hajmda, cheqasi qizg'ish, o'rtasi qora rangda bo'ladi. Bu kasallikning qo'zg'atuvchisi *Alternaria alternata* zamburug'i hisoblanadi. Alternarioz odatda tabiatda uchraydi, o'simlik qoldiqlarida, begona o'tlar va qurigan o'tlarda osongina rivojlana oladi. Sporolari havo oqimi va suv tomchilari orqali tarqaladi.

Xulosa. Xandon pista plantatsiyalarini barpo etishda turli sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan shakllardan foydalanish kerak. Chunki har bir shaklning morfologik belgilari kabi bioekologik xususiyatlari ham turlicha bo'ladi. Bir xususiyati yuqori bo'lgan nav va shakllarning boshqa xususiyatlari pastroq bo'lishi mumkin. Shu boisdan ham mevasining sifat ko'rsatkichlari yoki hosildorligi yuqori bo'lgan nav va shakllarni aralash holda joylashtirish tavsiya etiladi. Xandon pista kasalliklariga qarshi kurashishda agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida olib borish, yerni chuqur xaydash, o'simlik qoldiqlarini daladan olib chiqib tashlash tavsiya qilinadi. Kasallikning ommaviy tarqalishi kuzatilganda, kimyoviy va biologik kurash choralaridan foydalanish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. O.Nazarova, O.Xujayev. Xandon pistada Alternarioz kasalligi, uning zarari va ayrim biologik xususiyatlari: tadqiqot natijalari. Agro Ilm, maxsus son – 2[86], 2022.
2. Gavin James Ash, V. M. Lanoiselet. First report of *Alternaria alternata* causing late blight of pistachio (*Pistacia vera*) in Australia. December 2001, Plant Pathology 50(6):803 – 803 DOI: 10.1046/j.1365-3059.2001.00626.x.
3. Nicola Wunderlich, Severino Sousa Costa, Roni Pati Tpoi, Gavin James Ash. First report of *Botryosphaeria dothidea* causing shoot blight and cankers of pistachio in Australia. Australasian Plant Dis. Notes (2012) 7:47–49 DOI 10.1007/s13314-012-0045-y.
4. O.Nazarova, O.Khujaev, G.Jumanazarov. Septoria (*Septoria pistaciae* Desm.) pathogen infecting pistachio nuts in Uzbekistan and its biological characteristics. IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1142 (2023) 012051.

UO'T: 631.4:551.3

TOG' YONBAG'RI TUPROQLARINING UNUMDORLIGINI SAQLASH VA TIKLASH MUAMMOLARI

Mirxaydarova Gulmira Sultonovna, b.f.n., dotsent,
Suvanqulova Saida Shamsiddin qizi, talaba,
Xushatova Shahlo Farhod qizi, talaba,
Bo'riyeva Dilbar Xidir qizi, talaba,
Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya. Maqolada tog' yonbag'ri lalmi bo'z tuproqlarning eroziya jarayonida kimyoviy va agrokimyoviy holatini, hamda tuproqning biologik faolligini o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Lalmi bo'z tuproqlarda gumusning tuproq unumdorligidagi ahamiyati, shuningdek, gumus miqdorini eroziya jarayonida kamayishi va eroziyaga qarshi tadbirlarning o'tkazilishida tiklanishi kabi ma'lumotlar yoritilgan. Lalmi bo'z tuproqlari profili bo'ylab gumusni bir tekis taqsimlanmagani, va gumus miqdori qiyaliklarning ekspozitsiyasiga xam bog'liqligi jadvalda keltirilgan. Shuningdek, gumus miqdoriga bog'liq xolda tuproqning fizik xossalarini o'zgarishi kabi ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: lalmi tuproqlar, tuproq unumdorligi, kimyoviy va agrokimyoviy xossalari, gumus, eroziya jarayoni, qiyalik ekspozitsiyasi.

Аннотация. В статье представлены сведения об изменении химического и агрохимического состояния богарных сероземов горных склонов, а также биологической активности почвы. Освещены сведения о значении гумуса в плодородии почв в богарных сероземах, а также о снижении содержания гумуса при эрозии и его восстановлении при противоэрозионных мероприятиях. В таблицах показано, что гумус распределен по профилю богарных сероземов неравномерно, а количество гумуса зависит также от экспозиции склонов. Также приведены сведения об изменении физических свойств почвы в зависимости от количества гумуса.

Ключевые слова: богарные почвы, плодородие почв, химические и агрохимические свойства, гумус, эрозионный процесс, экспозиция склонов.

Abstract. The article presents information about changes in the chemical and agrochemical state of rain-fed gray soils on mountain slopes, as well as the biological activity of the soil. Information is covered on the importance of humus in soil fertility in rain-fed gray soils, as well as on the decrease in humus content during erosion and its restoration during anti-erosion measures. The table shows that humus is distributed unevenly along the profile of rain-fed gray soils, and the amount of humus also depends on the exposure of the slopes. Information is also provided on changes in the physical properties of soil depending on the amount of humus.

Key words: rainfed soils, soil fertility, chemical and agrochemical properties, humus, erosion process, slope exposure.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda hozirgi kunda foydalanib kelinayotgan asosan sug'oriladigan qolaversa lalmi, yaylov yerlarni hozirgi zamon talablari asosida doimo rivojlantirish, bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar negizida yer resurslari va ularning hozirgi holati, ayniqsa tuproqlarning unumdorlik darajasi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli qishloq xo'jaligida amalda foydalanib kelinayotgan sug'oriladigan tuproqlar singari lalmi tuproq qoplamlaridan unumli foydalanish, samaradorligini oshirish qolaversa, unumdorligini saqlash, qayta tiklash, hamda muhofaza qilish eng muhim ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Respublika bo'yicha lalmikor yerlar 756,7 ming gektarni tashkil qiladi. Lalmikor yer maydonlarining viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha, jumladan Jizzax 224.4 gektar, Qashqadaryo 258,5 gektar, Samarqand 182,1 gektar, Surxondaryo 39,5 gektar, Toshkent 33,3 gektar, va Navoiy viloyatlarida 19,8 gektar maydonlarni egallab yotsada, ularning xossa va xususiyatlari, intensiv dehqonchilik tizimida o'zgarishi, hamda regional xususiyatlari ayrim joylarda yetarli darajada o'rganilmagan [4].

Ma'lumki, tog'li hududlar asosiy biologik mahsuldor qoplam va ulardan yaylovlar sifatida foydalanish mumkin. Tog' qiyaliklarida o'rmonzorlar tuproqni himoya qilishda va suv oqimi yo'nalishini boshqarishda muhim rol o'ynaydi, ular pastki va o'rtacha balandliklardagi lalmikor tog' tuproqlari esa dehqonchilikni va bog'dorchilikni rivojlantirishda katta imkoniyatga ega bo'lgan zahiradir [5].

Tog' va tog' oldi tuproqlaridan samarali foydalanishda ular sharoitiga xos bo'lgan muammolar mavjud. Tog' tuproqlari o'ziga xos spesifik xususiyatlarga ega bo'lib, ular tekislik tuproqlaridan keskin farq qiladi. Tog' reliefi tuproqlarining poyaslar bo'yicha turlicha taqsimlanishi qiyalik elementlari bo'yicha tarqalgan o'simliklarda katta farq bo'lishiga sharoit yaratadi, shu sababli ulardan noto'g'ri foydalanish eroziya jarayonlarining jadallashishiga olib keladi. Eroziya jarayonlarining rivojlanishi tabiiy tuproq qoplamining o'zgarishiga va ularning agrofizikaviy, agrokimyoviy xossalari yomonlashuviga hamda unumdorlikning diagnostik ko'rsatkichlaridan biri hisoblangan biologik faollikning pasayishiga olib keladi [5].

Eroziyaga duchor bo'lgan tuproqlar past biogenlik xususiyatga ega. Negaki, eroziya ta'sirida tuproqlarning fizik, kimyoviy va agrokimyoviy xossalari o'zgarishi o'z navbatida mikroorganizmlar miqdorining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bu esa tuproqlardagi mikroblar olamining inqirozga yuz tutishiga va mikroorganizmlarning ayrim guruhlarini sezilarli darajada o'zgarishiga olib keladi [6].

Demak, G.Sodiqova tomonidan tadqiq etilgan tuproqlarda mikroorganizmlarning eng ko'p miqdori ustki gumusli qatlamlarga to'g'ri keladi va quyi qatlamlar tomon gumus miqdorini kamayishiga bog'liq holda keskin kamayadi. Eroziya jarayonlari va tuproq tipchalariga bog'liq ravishda ham ularni miqdorida farqlanishlar

kuzatiladi. Eroziya jarayoni ortishi bilan ularni miqdorini keskin kamayishi kuzatiladi [5].

B.Ergashev tomonidan lalmi tog' jigarrang tuproqlari o'rganilib, gumus miqdori janubiy ekspozitsiyada 0,34-1,75 % bo'lib, shimoliy ekspozitsiyasida bu ko'rsatkich 0,34- 1,83 % atrofida tebranishi kuzatildi. Ularning qiyalik darajalariga qarab genetik gorizontlari tomon kamayib borishi natijasida, shunga mos ravishda umumiy azot miqdori ham o'zgarib boradi (1-jadval).

Tuproq gumusi – oqsil, aminokislota, mum, smola, past molekulyar organik kislotalar, selluloza, lignin, xitin va boshqa moddalardan iborat bo'lgan yuqori molekulyar murakkab kimyoviy moddalar majmuasidir. Uning miqdori, bir qator omillar va sharoitlarga – tuproqqa tushadigan biomassa miqdori va sifati, tuproqning kimyoviy tarkibi, muhiti, suv-havo, issiqlik xossalari hamda fizik-mexanik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi [7].

D.Qodirova tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, eroziya jarayonlari tufayli lalmi tipik bo'z tuproqlar organik modda va asosiy oziqa elementlariga kambag'allashgan, shuning uchun ushbu tuproqlar unumdorlikning past darajasiga ega. Eroziya jarayonlari natijasida bo'z tuproqlarning gumusli qatlami qalinligi qisqargan, gumusning eng yuqori miqdori haydalma qatlamga to'g'ri keladi, haydalma osti qatlami tomon gumus miqdori kamayishi kuzatiladi. O'rganilgan tuproqlarning haydalma va haydalma osti qatlamlarida gumus miqdori 0,44-0,70 %, pastki qatlamlarida esa 0,12-0,20 % gacha kamayadi. O'rganilgan tuproqlarda gumus miqdorining kamligini eroziya jarayonlari, o'simlik qoplamining siyrakligi va tuproqda namlikning kamligi bilan izohlanadi [7].

M.Aliboeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, tuproqda gumus moddalarining kamayishi bilan solishtirma og'irlik asta sekinlik bilan ortib boradi. Umuman olganda tog' tuproqlarining solishtirma og'irligi 2,3-2,7 g/sm³ atrofida tebranib turadi. Tog' jigarrang karbonatli tuproqlarda 2,54 g/sm³ ga, tog' jigarrang tipik va ishqorsizlangan tuproqlarda esa bu ko'rsatkich ancha yuqori 2,61-2,65. g/sm³ ga teng. Solishtirma og'irlikka gumus ta'sir etsa, unda bevosita gumusga ta'sir etuvchi omillar bu o'simlik qoldiqlari, joyning reliefi, iqlimi bularning xammasi o'z navbatida bir birlari bilan bog'liq ekanligini bildiradi [1].


Tog' tuproqlarida pastga qarab hajm massani oshishi tekislik tuproqlariga qaraganda kamroq o'zgaradi. Tog' o'lkasi tuproqlarida esa hajm og'irlikni qanaqa bo'lishi gumus miqdoriga va o'sha xududdagi tabiiy omillar yog'in-sochin, o'simlik va hayvonot dunyosi, genetik qatlamlarning o'zaro bosimi ta'sir ko'rsatishi natijasida o'zgarib boradi [1].

Gumus o'simliklar oziqlanishi uchun zarur va biologik ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab oziq elementlar, ayniqsa, azot va karbonat angidridning asosiy manbaidir. Tuproq tarkibidagi kalsiy, magniy, kaliy, ammiak singari elementlar organik qoldiqlarning chirishi va gumifikatsiya mahsuloti hisoblangan gumusning minerallanishi ta'sirida yangi shaklda,

Lalmi tog' jigarrang tuproqlarining ayrim agrokimyoviy xossalari
(Ergashev Baxtiyor, Abdurasulov Hamza, 2022 y.)

№	Kesmani joylashgan oʻrni	Qatlam qalinligi, sm	Gumus, %	Umumiy, %			Karbonatlar CO ₂ %
				Azot	Fosfor	Kaliy	
Lalmi, karbonatli togʻ jigarrang tuproq							
1	Delyuvial lyossimon qumolardan tashkil topgan (janubiy ekspozitsiya)	0-18	1,754	0,126	0,112	1,39	9,72
		18-40	0,969	0,072	0,086	1,31	6,76
		40-85	0,541	0,047	0,059	1,24	4,28
		85-120	0,425	0,038	0,028	1,19	6,70
		120-166	0,346	0,032	0,023	1,11	9,50
2	Delyuvial lyossimon qumolardan tashkil topgan (shimoliy ekspozitsiya)	0-20	1,833	0,134	0,118	1,42	5,02
		20-45	0,978	0,078	0,093	1,35	9,08
		45-95	0,582	0,047	0,068	1,27	6,86
		95-135	0,421	0,035	0,033	1,21	4,22
		135-177	0,342	0,029	0,028	1,12	4,75

ya'ni o'simlikka oson singadigan birikmaga aylanadi. Bundan tashqari gumus tuproqning fizikaviy-mexanikaviy, kimyoviy va biokimyoviy xossalarning yaxshilanishiga olib keladi hamda tuproq unumdorligini oshiradi [8].



(kesma №1 1998/99-yil ma'lumotlari (G.S.Mirxaydarova, 2000))
To'q tusli bo'z tuproq, qiyalikning yuqori 1942 yilda qilingan terrasasi, shimoli-g'arbiy ekspozitsiya 13°

(kesma №2 1939-yil ma'lumotlari (Z.N.Antoshina, M.A.Pankov, 1941))
To'q tusli bo'z tuproq, kuchli eroziyalangan, shimoli-g'arbiy ekspozitsiya 11°

1-rasm. To'q tusli bo'z tuproqlarning gumus va CO₂ miqdori

Tuproqdagi biomasaning yuqori bo'lishi gumus moddasi bilan tuproq doimiy boyib borishini ta'minlab tuproqlarni xossalarni yaxshilanishiga, natijada eroziyaning oldini olishiga sabab bo'ladi. Shuningdek o'simliklar yaxshi rivojlangan tuproq qoplamida gumusli qatlam qalinlashadi va ushbu tuproqlarni unumdorligini oshishiga sabab bo'ladi [8].

Chotqol tog'-meliorativ tuproq qoplamini tajribaviy stansiya 1939 yilda tekshirilgan va tavsiflangan. Z.N. Antoshina va M.A. Pankovlar tomonidan bu zonada barcha nishabli tuproqlar turli darajada eroziyalanganligi aniqlangan. 1939 yilda tuproqlarda yuqori qatlamlarda gumus miqdori 1,44-0,86% ni tashkil etdi. 60 yil davomida qiyaliklarni terrasalash va daraxt ekishdan keyin gumus miqdori tuproqning ustki qatlamlarida 2,46 - 3,73% gacha ko'tarildi. Muhim o'zgarishlar CO₂ karbonatlarning to'planishida yuzaga kelgan, ularning miqdori yuqori qatlamlarda kamaydi (2,3). Ko'rib turganingizdek, ularni chuqurroq yuvish jarayoni davom etmoqda, hamda tuproqlar unumdorligini qayta tiklash kuzatilmoqda (1-rasm).

Xulosa. Tog' yonbag'ri tuproq qoplamini himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun insonlarning dehqonchilik faoliyatida tuproq hosil bo'lish sharoitlarini e'tiborga olish, suv eroziyasiga qarshi tadbirlarni amalga oshirish borasida yer ustki chim qoplamining buzilishini oldini olish lozim.

Kuchli eroziyalangan qiyaliklarni terrasalash va ularga daraxtlar o'tqazish kabi tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

Tog'li o'lkalarda yaylovlarni eroziyadan saqlashda chorvachilik kompleksi faoliyatini qattiq nazoratga olish, maxsus yaylov almashlashni rejalashtirish asosida olib borish kerak. Ayniqsa, namlik yuqori darajada bo'lgan paytda yerlardan foydalanmaslik choralarini ko'rish zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Aliboeva M., Jabbarov Z., Faxrutdinova M. Chotqol davlat biosferasi qo'riqxonasi xududi tuproqlarining fizik xossalari gumusning ta'siri //Jurnal Agro protsessing. – 2022. – T. 4. – №. 2.
2. Михайдарова Г. С., Муталова Н. Б., Сафарова Н. Р. Высокое плодородие-залог процветание //omega science, 2019.–280 c. – 2019. – С. 140.
3. Mirxaydarova G.S. G'arbiy chotqol tog' yon bag'ri tuproq xossalari eroziyaga qarshi o'tkazilgan tadbirlar ta'sirida o'zgarishi//Monografiya//Toshkent–2023 "Fan ziyosi" nashriyoti
4. Ergashev B., Abdurasulov H. Turkiston tog' tizmasi shimoliy yonbag'irlari lalmi jigarrang tuproqlarning ayrim agrofizik va agrokimyoviy xossalari //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D3. – S. 384-388.
5. Sodiqova G. S., Ismoilov D. Eroziyaga uchragan tog' yaylov tuproqlarining biologik faolligi //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D3. – S. 335-339.
6. Sodiqova G.S. Boysun tog'i tuproq-ekologik sharoitlari, biologik faolligi va ularga eroziya jarayonlarining ta'siri. Avtoref.

Diss. ...b.f.n. Toshkent, 2011. -12-25 b.

7. Qodirova D., Safarova N., Safarov B. Lalmi tipik bo'z tuproqlarning kimyoviy va agrokimyoviy xossalari tavsifi// Prospects of development of science and education. – 2023. – T. 19. – №. 23. – S. 184-191.

8. Toshqo'ziev M. M. va boshqalar. Bo'stonliq tumani to'q tusli bo'z tuproqlar mintaqasi sharoitida o'simliklar fitomassasiga bog'liq holda tuproqda organik moddani to'planishi //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 4. – 317-327 b.

UO'T: 631.4.

DUKKAKLI O'SIMLIKLAR RIVOJLANISHIDA AZOTLI O'G'ITLARNING TA'SIRI

Musurmonova Mukambar Pazitdinovna, assistent,
Baxomova Lobar To'liqin qizi, talaba,
Toshmatova Madina Hayrulla qizi, talaba,
Sunnatullayeva Muxlisabonu Farhod qizi, talaba,
Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya. Azotni o'zlashtirish dukkakli ekinlarni tuproqda yashaydigan maxsus bakteriyalar bilan simbiozi evaziga amalga oshadi. Bakteriyalar o'simlik ildizini zararlaydi va tuganaklar hosil qiladi. Bakteriyalar dukkakli ekinlarning bir turi yoki bir nechta turiga ixtisoslangan bo'ladi. Agar dukkakli ekinlar bir necha yil yetishtirilmagan bo'lsa, tuproqda bu bakteriyalar bo'lmaydi. Bakteriyalarning sporalari tuproq yoki torf bilan aralashtirilib urug'larga ekishdan oldin yopishtiriladi. Urug'unib chiqqandan keyin bakteriyalar ildizga kirib borib, hujayralarda yashaydi va o'simlik bilan simbioz hosil bo'ladi. Agar dukkakli o'simliklar mineral azot bilan ta'minlangan bo'lsa biologik azot to'planmaydi

Kalit so'zlar: Ekinlar, no'xat, loviya, donli ekin, o'sishi va rivojlanishi, tuproqning azotga boyitilishi, mineral o'g'itlarning ta'siri.

Аннотация. Усвоение азота происходит за счет симбиоза со специальными бактериями, обитающими в бобовой почве. Бактерии повреждают корень растения и образуют клубеньки. Бактерии специализируются на одном или нескольких видах бобовых. Если бобовые не выращивали несколько лет, этих бактерий в почве не будет. Споры бактерий смешивают с почвой или торфом и приклеивают к семенам перед посадкой. После прорастания семени бактерии проникают в корень, живут в клетках и образуют симбиоз с растением. Если бобовые снабжаются минеральным азотом, биологический азот не накапливается.

Ключевые слова: Минеральные удобрения оказывают влияние на такие культуры, как горох, фасоль, злаки, рост и развитие которых обогащает почву азотом.

Abstract. Nitrogen assimilation takes place due to symbiosis with special bacteria living in leguminous soil. Bacteria damage the plant root and form nodules. Bacteria are specialized for one or more types of legumes. If legumes have not been grown for several years, these bacteria will not be present in the soil. Bacterial spores are mixed with soil or peat and glued to the seeds before planting. After the seed germinates, the bacteria enter the root, live in the cells, and form a symbiosis with the plant. If legumes are supplied with mineral nitrogen, biological nitrogen does not accumulate.

Keywords: Crops such as peas, beans, cereals, the growth and development of which enrich the soil with nitrogen are influenced by mineral fertilizers.

Kirish. Ko'pchilik D.d.e. mevalari birin-ketin, pastdan yuqoriga qarab joylashadi, shuning uchun urug'lar baravar pishib yetiladi. Soya, loviya issiqqa ancha talabchan, maysalari 10-13°C, lyupin, no'xat urug'lari 5-6°C, yasmiq, burchoq 3-4°C temperaturada unib chiqadi. O'risno'xat, burchoq maysalari – 8°C, soya – 4° gacha chidamli, loviya esa – G da nobud bo'ladi. D.d.e. don to'li-shishi va uning pishib yetilishi fazasida issiklikni ko'p talab qiladi. Soya, lyupin nanga ancha talabchan. No'xat va burchoq qurqochilikka chidamli. D.d.e. yengil qumloq va qumoq tuproqlarda juda yaxshi o'sadi. No'xat, vika hamda dukkaklilar neytral reaksiyalı tuproqlarda, loviya va soya nim nordon, lyupin nordon tuproqlarda yaxshi usadi. D.d.e. fosforli-kaliyli o'g'itlarga talabchan. D.d.e. oziq-ovqat hamda ozuqa ahamiyatiga ega, oqsilga boy don olish uchun ekiladi. Doni, ayniqsa, to'la pishib yetilmagan doni oqsil (12— 60%), uglevod (11—60%), yog' (0,5—52%; quruq modda

hisobida), vitamin, karotinga boy. Pishib yetilgan doni bevosita taomlarga ishlatiladi. Ulardan yorma, un tayyorlanadi. Dumbul mevalari sabzavot sifatida foydalaniladi. D.d.e. doni, kunjarasi, poyasi va poxoli chorva mollari hamda parrandalar uchun qimmatbaho, proteinga boy ozuqadir. D.d.e. tuproqni azotga boyitadi va ekinlar uchun muhim o'tmishdosh o'simlik hisoblanadi. Sug'orma dehqonchilik mintaqalarida D.d.e. ang'iz yoki oraliq ekin sifatida (yakka o'zini yoki boshqodoshlar bilan qo'shib kuz-qish va qish-bahor davrida) ekiladi. Ko'k massasi qoramol uchun ozuqa yoki ko'kat o'g'it sifatida ishlatiladi.

Fava loviya - bu ajoyib o'tlar: ular juda tez o'sish sur'atiga ega va ayni paytda juda samarali. Ular hech qanday maxsus g'amxo'rlikni talab qilmaydi, shuning uchun ular yangi boshlanuvchilar uchun, hatto o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha tajribaga ega bo'lmaganlar uchun mos bo'lgan hosildir.